

## **MOLIYAVIY HISOBOTLARDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNI TAHLIL QILISH USLUBIYOTI MASALALARI.**

**Bobobekov Baxrom Kaxharovich**

**Jizzax politexnika instituti tadqiqotchisi.**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada buxgalteriya hisobi tizimida kunning eng dolzarb bo'lib turgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi 4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori ijrosini ta'minlashga qaratilgan, korxonalarining iqtisodiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan mablag'lardan tovar-moddiy zaxirlarni hisobini tashkil etishda xorijiy davlatlarda qo'llanilayotgan me'yoriy hujjatlar va uslubiyotlar haqida keng to'xtalib o'tiladi.

**Kalit so'zlar.** tovar-moddiy zaxira, tan olish, baholash, xalqaro standartlar, moliyaviy hisobot.

## **ВОПРОСЫ МЕТОДИКИ АНАЛИЗА ЗАПАСОВ В БУХГАЛТЕРСКОЙ ОТЧЕТНОСТИ.**

**Бобобеков Бахром Каххарович**

**Исследователь Джизакского политехнического института.**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются нормативные документы и нормативные акты, применяемые в зарубежных государствах при организации учета товарно-материальных запасов из средств, имеющих важное значение в экономической деятельности предприятий, направленные на обеспечение исполнения постановления Президента Республики Узбекистан от 24 февраля 2020 года № 4611 "о дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности", являющиеся наиболее актуальными в системе бухгалтерского учета дня. методики подробно остановимся на.

**Ключевые слова.** товарно-материальные запасы, признание, оценка, международные стандарты, финансовая отчетность.

# ISSUES OF METHODOLOGY FOR ANALYZING COMMODITY AND MATERIAL RESERVES IN FINANCIAL STATEMENTS.

**Bobobekov Bakhrom Kakharovich**

**Researcher at Jizzakh Polytechnic Institute.**

**Annotation.** This article focuses on ensuring the implementation of the decree of the president of the Republic of Uzbekistan dated February 24, 2020 No. 4611 “on additional measures for the transition to International Financial Reporting Standards”, which is the most relevant of the day in the accounting system, and extensively discusses the regulatory documents and methods used in foreign countries in the organization of.

**Keywords.** commodity-material reserve, recognition, assessment, international standards, financial reporting.

Moliyaviy hisobotlarda tovar-moddiy zaxiralarni tahlil qilishda asosan moliyaviy tahlilning umumiy belgilangan uslubiyoti tadqiq etiladi.

Bugungi kunda moliyaviy tahlilni tashkil etish yuzasidan me'yoriy tartiblarning turlicha bo'lganligi sababli, uni tashkil etishda an'anaviy usullar va yo'nalishlardan keng foydalanib kelinmoqda. Tovar-moddiy zaxiralarni tahlili moliyaviy holat bo'yicha ko'rsatkichlar tarkibida ifodalaniladi. M.Raximovning fikricha: “Moliyaviy holat tahlili oldiga qo'yiladigan asosiy vazifalarni manbalarga tayangan holda umumlashtiriladi va tarkiblanadi”.

Tovar-moddiy zaxiralar tahlilida moliyaviy tahlilning joriy (operativ) moliyaviy tahlil alohida ahamiyat kasb etadi. Tahlilning mazkur usuli tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha rejalarni bajarilishida yoki tovar-moddiy zaxiralar bilan bog'liq muamalalarni amalga oshirishda tezkor, ya'ni operativ ko'rinishda tovar-moddiy zaxiralarning moliyaviy holatga ta'sir etish yuzasidan o'tkazib boriladi.

Tovar-moddiy zaxiralar tahlilni tashkil etish quyidagi bosqichlarda o'tkazish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

*birinchi*, tovar-moddiy zaxiralar tahlili maqsadini belgilash va rejasini tuzish;

*ikkinchi*, tovar-moddiy zahirlar tahlili yuzasidan ma'lumotlar bazasini to'plash;

*uchinchi*, tovar-moddiy zaxiralar tahlilni bevosita o'tkazish tartibi;

*to'rtinchi*, tovar-moddiy zaxiralar tahlili natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish;

*beshinchi*, tovar-moddiy zaxiralar tahlili bo'yicha qarorlar tayyorlash;

*oltinchi*, tovar-moddiy zaxiralar tahlili natijalarini realizatsiya qilish.

Tovar-moddiy zaxiralarni tahlil qilishda axborot manbai bo'lgan buxgalteriya balansida ular *"Moliyaviy bo'lmagan aktivlarning moliyaviy bo'lmagan joriy aktivlari"* sifatida tasniflanadi.

Olib borilgan tadqiqotlarda tovar-moddiy zaxiralarni gorizontaal va vertikal usullarida tahlil qilinib, olingan natijalar bo'yicha ilmiy xulosalar berildi. Tovar-moddiy zaxiralarni gorizontaal tahlili bu mazkur zaxiralar bo'yicha ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash orqali ularning holatdagi o'zgarishlarga baho beriladi. Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralarni gorizontaal tahlil asosida ularning o'zgarishiga mutlaq va nisbiy ifodalarda ham baho berish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Tovar-moddiy zahirlarini gorizontaal tahlilni quyidagi shakllaridan amalga oshirish mumkin:

- tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha hisobot ko'rsatkichlarini davr boshiga va oxiriga taqqoslash;

- tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha hisobot ko'rsatkichlarini o'tgan yilning shu davri ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyida *"Jizzaxdonmahsulotlari"* AJda tovar-moddiy zaxiralar va ular tarkibi o'zgarishi dinamik ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Tadqiqot ob'ekti *"Jizzaxdonmahsulotlari"* AJda tovar-moddiy zaxiralar va ular tarkibining o'zgarishi tahlil qilinganda, korxonada tovar-moddiy zag'iralarning hajmi 2020 yilga nisbatan 2024 yilda 113700 ming so'm yoki 192 foizga oshgan. Zaxiralar tarkibida ishlab chiqarish zaxiralari salmoqli o'rin

egallaydi, mazkur xom-ashyo va materiallar qiymati 2024 yilda jami tovar-moddiy zaxiralarning 97,4 foizini tashkil qilgan.

**“Jizzaxdonmahsulotlari” AJda tovar-moddiy zaxiralar va ular tarkibi  
o‘zgarishi, ming so‘mda<sup>1</sup>**

<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>2020 yil 01.01.</b>	<b>2021 yil 01.01.</b>	<b>2022 yil 01.01.</b>	<b>2023 yil 01.01.</b>	<b>2024 yil 01.01.</b>	<b>2020 yilga nisbatan o‘zgaris hi, foizda</b>
<b>Tovar-moddiy zaxiralar, jami</b>	<b>123 472 799</b>	<b>85 125 505</b>	<b>189 717 526</b>	<b>184 256 630</b>	<b>237 173 241</b>	<b>192,0</b>
shu jumladan:						
Ishlab chiqarish zaxiralari	121 063 000	83 928 028	173 164 631	169 814 268	231 058 823	190,8
Tugallanmagan ishlab chiqarish	0	0	0	0	0	
Tayyor mahsulot	1 918 495	1 209 347	164 498 291	13 368 019	5 398 165	281,3
Tovarlar	491 304	15 130	54 604	1 074 343	716 253	145,7
<b>Jami joriy aktivlar</b>	<b>221 820 677</b>	<b>166 427 621</b>	<b>265 750 049</b>	<b>277 864 461</b>	<b>342 444 589</b>	<b>154,3</b>
<b>Jami aktivlar</b>	<b>273 104 483</b>	<b>229 760 080</b>	<b>323 804 201</b>	<b>327 200 195</b>	<b>388 171 719</b>	<b>142,1</b>

Shuningdek, TMZlarning jami aktivlardagi salmog‘i 2020 yilda 55,6 foizdan 2024 yilda 69,2 foizgacha ortgan va umumiy ko‘rsatkichda bu 124,4 foizni tashkil

<sup>1</sup> “Жиззахдонмахсулотлари” АЖ маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

qiladi. O‘z navbatida TMZlarning hajmi joriy aktivlar tarkibida 2020 yilda 80,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024 yilga kelib 88,1 yoki farqi sifatida 108,9 ga teng bo‘lgan. Korxonada tayyor mahsulotlar va tovarlar hajmi ham o‘shirish tendensiyasiga ega. Albatta bu yaxshi holat deb baholash mumkin, lekin masalani boshqa tomoni ularni saqlash bilan bog‘liq xarajatlarni ham bir vaqtning o‘zida o‘shirish borishini anglatadi. Korxonada tugallanmagan ishlab chiqarish bo‘yicha so‘nggi besh yilda qoldiqqa ega bo‘lmagan. Umumiy xulosa qilish mumkinki, aksiyadorlik jamiyatida tovar-moddiy zaxiralarning ko‘payishi, korxonaning joriy likvidlik darajasini oshirishning asosiy omillardan biri bo‘lib qoladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni vertikal tahlili uning tarkibiy jihatlariga baho berishni o‘zida ifodalaydi. Bizning fikrimizcha tovar-moddiy zaxiralarni vertikal tahlil qilish ularning salmog‘i va o‘zgarishlari asosida korxonalarining moliyaviy holatiga baho berish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, mazkur tahlilda tovar-moddiy zaxiralar holatini bilish, anglash hamda to‘g‘ri nisbatlash mumkin bo‘ladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni vertikal tahlilida ayrim tarkib qatorlar salmog‘ini balans jamiga nisbatan va ushbu tarkibning jamlangan qatoriga nisbatan ham hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Bu esa, tovar-moddiy zaxiralarning tarkibiy o‘zgarishlarini baholashga, aktivlar tarkibida alohida tarkiblar salmog‘ining o‘zgarishini, likvidlik va to‘lovga qobillik ko‘rsatkichlari ta‘sirini to‘g‘ri baholashga imkon beradi. Natijada, tovar-moddiy zahirlarning tarkibiy o‘zgarishlarini amalga oshirish orqali korxonalarining moliyaviy holatni yaxshilash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqishi mumkin bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-sonli qaror. 2020 yil 24 fevral. <https://lex.uz/docs/4746047>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158 son Farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston-2030 Strategiyasi”. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

3. “Zahiralar” 2-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. Rasmiy tarjima. (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2022 yil 28 martdagi 39-sonli buyrug‘i).

4. “Tovar-moddiy zahiralar” BHMS 4, 3-band. (AV, 30.06.2020 y. 3259-son, MV 28.05.2020 y. 24-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan)

5. Karimov A.A., Islomov F.R., Avlokulov A.Z. Buxgalteriya hisobi. Darslik. -T: «Sharq» NMAK. 2004. 592-bet. 235-betdan